

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM BO'LAJAK SURDOPEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Xayitov Lazizbek Rustamjon o'g'li

Qo'qon davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish omili ekanligi, o'quv faoliyatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni, mazkur ta'limni tashkil etishda muloqotning o'rni masalasi yoritilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil qilishda o'yin faoliyatidan foydalanish, u orqali bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'z va iboralar: surdopedagog, kasbiy kompetensiya, kompetentlik, omil, rivojlanish, shaxsga yo'nalganlik, o'yin, muloqot, dialogik muloqot.

Annotation: This article discusses the issue of the development of professional competence of future sign language teachers through person-oriented education, the content of person-oriented education in educational activities, the role of communication in the organization of this education. The use of game activities in the organization of person-oriented education, and the mechanisms for developing professional competence of future sign language teachers through it are shown.

Keywords and phrases: sign language teacher, professional competence, competence, factor, development, person-orientedness, game, communication, dialogical communication.

Аннотация: В статье рассматривается проблема развития профессиональной компетентности будущих учителей жестового языка посредством личностно-ориентированного образования, содержание личностно-ориентированного образования в образовательной деятельности, роль коммуникации в организации этого образования. Показано использование игровой деятельности в организации личностно-ориентированного образования и механизмы развития профессиональной компетентности будущих учителей жестового языка посредством её использования.

Ключевые слова и фразы: учитель жестового языка, профессиональная компетентность, компетентность, фактор, развитие, личностно-ориентированность, игра, коммуникация, диалогическое общение.

Shaxsiy yo'naltirilgan masalalar ta'lim oluvchiga kognitiv va amaliy tafakkur bilan bir qatorda shaxsiy imkoniyatlarini namoyon etish – ona tili o'qitish metodikasi fanining inson borlig'ining axloqiy-madaniy muammolari bilan bog'liqligini idrok etish, bilish metodologiyasi va falsafasini anglash, maxsus ta'lim o'qituvchisining olam tasvirini yaratishdagi ijodiy yaratuvchanlik faoliyati rolini ko'rishi, insonning tabiatni anglash mazmuni va dunyoqarashlarini muhokama qilishga imkon beradi. Boshqacha aytganda, mazkur topshiriqlar bo'lajak surdopedagoglarning tilga oid materialning qadriyatli-mazmunli komponentini aniqlash bilan bog'liq.

O'quv faoliyatini bunday tashkil etish hamkorlik vositasiga yoki hamkorlikdagi faoliyat maqsadiga aylanuvchi, muzokaralar, tomonlar fikrlari va farazlarni qiyoslash

natijasida yuzaga keluvchi bilimlarni har tomonlama ko'rish uchun sharoitlar yaratadi. Buning natijasida o'quv jarayoni insonning bilish faoliyatining haqiqiy sharoitlarini yanada to'liq modellashtiradi. S.V.Belovanning fikriga ko'ra, tashqi didaktik shakli bo'yicha dialog muammoli vaziyatni eslatadi, uning zaruriy xususiyatlariga ega: ziddiyatlar, amallarning mo'ljalli asoslarining, axborotning, vaziyat to'g'risidagi yaxlit tasavvurning yetishmasligi, lekin boshqa tomondan shaxsiy mazmunli dialog mazkur muammolikni "yo'q qilish"ni maqsad deb bilmaydi. Shaxs uchun ziddiyatlarni va uning oldida yuzaga kelgan muammo hayotiy muammo bo'lishga "haqli" ekanligini aniqlashtirish muhim [1].

Shuning uchun muloqot predmeti sifatida quyidagilarni tanladik: bir necha yechish usullariga ega yoki noaniq yechimlarga ega bilimga doir topshiriqlar; muammoli savollar bo'yicha javoblarni tadqiqotchilik asosida izlashni nazarda tutuvchi muammoli mazmundagi amaliy topshiriqlar; imitatsion o'yinlar (rollarni ijro etish, ishlab chiqarish loyihasi), metodik munozaralar va boshqalar.

Dialog davomida talaba o'z natijalarini boshqalarda sinab ko'radi va bu bilan uni so'zda ifodalaydi, oqibatda uni yanada chuqur anglaydi. Dialogning vazifasi – muhokama etilayotgan predmetning "shaxsiy" jihatini ob'ektiv afzalliklari yoki kamchiliklardan ajratish – ahamiyatni mazmundan ajratishdir. Dialogning alohida sifati, unda ishtirokchilar nuqtai nazarlari refleksiyasi, uning mantiqiy-verbal ifodalanishi muammoga kognitiv, tadqiqotchilik munosabati bilan birlashadi. Bu dialogning ikki dominantligi (V.V.Serikov bo'yicha) uni shaxsiy rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarining universal tavsifiga aylantiradi. Dialogning shaxsiy rivojlantiruvchi imkoniyati shaxsning dialogik tabiati, u doimiy ravishda o'z-o'zi bilan ichki dialogda mavjudligi bilan bog'liq. Unda ongdan tafakkurga va aksincha o'ziga xos harakat o'zgarmasdir. Natijada, ichki tajriba shaxs tomonidan fikrlash konstruktsiyalari, matnlar, harakat va fikrlarda ifodalanadi [3].

Dialogik muloqotga ma'ruza vaqtida o'qituvchi va talabaning dialogi, amaliy mashg'ulotlarda bir topshiriqni yechishning bir necha usullarini yoki bir necha noaniq yechimlarga ega topshiriqni muhokama qilish misol bo'ladi. Masalan, 2-kursda ("Savod o'rgatish davrida foydalaniladigan ko'rgazmali vositalar tayyorlash" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot) quyidagi masala yechimi muhokama etildi: "Dushanba kuni birinchi sinfda uchta dars bo'lishi kerak: ona tili, matematika va jismoniy tarbiya". Mazkur dars jadvalining turli variantlari ifodalangan daraxtni quring. Hosil bo'lgan variantlardan eng optimal bo'lganini tanlang va o'z tanlovingizni asoslab bering". Muhokama predmeti dars jadvalining qaysi varianti eng optimal hisoblanishi to'g'risidagi nuqtai nazarlarning ko'pligida bo'ldi. Optimal dars jadvalini belgilash uchun talabalarga dastlab taklif etilgan psixologik-pedagogik adabiyotlardan boshlang'ich sinfdagi o'quvchi uchun kunning qaysi vaqtida ona tili, qachon jismoniy tarbiya va qachon matematika bilan shug'ullanish yaxshiroq ekanligini aniqlash zarur edi. Ba'zi talabalar darslarning quyidagi ketma-ketligini optimal deb ko'rsatdilar: ona tili, jismoniy tarbiya, matematika. Boshqalari – ona tili, matematika, jismoniy tarbiya. Shu tariqa, mazkur masalaning yechimini muhokama qilishda ikki guruh talabalari o'rtasida muhokamalar sodir bo'lib, ularning har biri o'z nuqtai nazarlarini himoya qildilar. Bu talabalarda kasbiy kompetentlikning barcha komponentlari rivojlanishiga yordam berdi.

Tayanch texnologik kompleksning uchinchi tashkil etuvchisi – imitatsion o'yinli metodlar hisoblanadi. Bu holatda shaxsga yo'naltirilgan o'quv-pedagogik vaziyat o'ziga xos o'yin sifatida ifodalanadi, uning mazmuni "ishdan" farqli ravishda, maqsadga erishish emas, balki o'z ijodiy kuchlarini erkin ifodalash, tor amaliy maqsadlardan holi ravishda, amaliy vazifalarni "o'ynab" hal etish imkoniyatida ifodalanadi.

Bunday o'yinli vaziyatda "boshqaga noobyektiv munosabat imkoniyati" yuzaga keladi. Bu o'yin motivatsiyasining o'ziga xos hodisasi bilan bog'liq. O'yin motivatsiyasi uning ixtiyoriyligi, tanlash imkoniyati va bellashuv elementlari, ehtiyojlarni qondirish, o'z-o'zini tasdiqlash, o'z-o'zini anglash bilan ta'minlanadi [4]. Materialni o'zlashtirishda imitatsion o'yinli bo'lmagan va o'yinli o'qitish metodlarini qo'llashimiz orqali yuqori samaraga erishildi.

Muzokara va ishchi o'ynlardan farqli ravishda, mazkur metodlarning o'ziga xos xususiyatiga ko'ra ularni oliy ta'lim muassasasining haqiqiy o'quv jarayonida doimo va muntazam qo'llash mumkin (o'yinli bo'lmagan imitatsion mashqlar – ma'ruzalarda; imitatsion o'yinli mashqlar amaliy va seminar mashg'ulotlarida). Aniq vaziyatlar tahlili (o'yinli bo'lmagan imitatsion mashqlar) – vaziyat-muammo, vaziyat-bahs, vaziyat-illyustratsiya, vaziyat-mashq – qayta ishlanmagan hayotiy vaziyatlar va ishlab chiqarish masalalarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Aniq vaziyatlar tahlili metodining mohiyati ta'lim oluvchi aniq vaziyat bilan duch kelganda quyidagilarni aniqlashi kerakligidan iboratdir: unda muammo mavjudmi, u nimadan iborat, vaziyatga o'z munosabatini aniqlash.

Vaziyatlarning har bir turida uni tashkil etishning o'ziga xosligi mavjud. Masalan, vaziyat-muammo haqiqiy hayotdan ma'lum omillarning qo'shilishini ifodalaydi. Ishtirokchilar yechimni topishga yoki uning imkoniyati to'g'risida xulosaga kelishga urinayotgan aktyorlar kabi ishtirokchilar hisoblanadilar. "Otlarning egalik qo'shimchalari bilan o'zgarishini o'rgatish" (2-sinf) mavzusi bo'yicha ma'ruza mashg'ulotida egalik tushunchasini kiritishda yuzaga keladigan vaziyat misol bo'ladi. Bu mavzu boshlang'ich sinf kar va zaif o'quvchilari uchun murakkab hisoblanadi, chunki bu mavzu o'rganilgunga qadar, o'quvchilar shaxs tushunchasi bilan hali tanishtirilmagan, kishilik olmoshlarini hali o'rganmagan bo'ladilar. O'quvchilarga egalik qo'shimchasi shaxs, narsa birlik va ko'plikdagi uch shaxsdan biriga taalluqli ekanini bildirishini tushuntirish qiyin. Shularni hisobga olib, o'quvchilarni otning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda o'qituvchi ishni sarlavhadagi "egalik" so'zining leksik ma'nosini tushuntirishdan boshlashi maqsadga muvofiq: egalik ega bo'lish, qarashlilik, tegishlilik, narsaga yega bo'lishni, shu narsa tegishli, shu narsaning egasi yekanini bildiradigan qo'shimchalar tushuniladi. Lekin talabalarga kundalik hayotdan (maishiy xususiyatdagi) egalikka misol keltirish taklif etilganida, ularda qiyinchiliklar yuzaga keldi. Mazkur muammoni hal etishda haqiqiy hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, sodda savollarga javoblarni tahlil qilish yordam beradi: "Kecha o'qigan kitobim juda qiziqarli ekan. Sening kitobing ham qiziqarlimi? Ra'noning kitobi juda qiziqarli edi?" va h.k. Mazkur tahlil natijasida, talabalarda egalik qo'shimchalarining bir qator misollari yuzaga keladi. Mazkur vaziyatlar shaxsiy tajribani tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmasini rivojlantirdi va bu fanga doir hamda shaxsiy kompetentlikni rivojlantirishga yordam berdi.

Vaziyat-baho ma'lum ma'noda undan chiqish yo'llari topilgan holatni ifodalaydi. Avval qabul qilingan qarorlarning tanqidiy tahlili amalga oshiriladi. Sodir bo'lgan hodisa to'g'risida motivli xulosa beriladi. Chetdan kuzatuvchi sifatida tinglovchining nuqtai nafari ifoda yetiladi. Masalan, "Ona tili o'qitish texnologiyasi so'zining morfemik tarkibini o'rganish metodikasi" mavzusi bo'yicha ma'ruzada (3-kurs) matematika va ona tili nuqtai nazaridan "yoki" bog'lovchisining mazmunini baholash mumkin.

Matematikada "yoki" bog'lovchisi ajralmas sifatida qo'llaniladi, ya'ni ikkala shartlarni bir vaqtda bajarish imkoniyatiga yo'l qo'yiladi. Ta'rifga ko'ra "6 karra 2 yoki 3" ifoda haqiqiy hisoblanadi, chunki "6 karra 2" va "6 karra 3" ikkala ifodalar haqiqiydir.

Morfologiyada esa "yoki bog'lovchisi" aynan ajratuvchidir, ya'ni shartlardan faqat birini bajarilishiga yo'l qo'yadi: "Menga markalar yoki nishonlar olib kelish". Mazkur vaziyatni baholash, uni anglash tanqidiy tafakkurni, vaziyatni shaxsiy tajriba nuqtai nazaridan baholash qobiliyatini, o'zining bo'lajak kasbiy faoliyati uchun vaziyatning muhimligini baholashni rivojlantiradi, chunki matematika va ona tili maxsus ta'limning asosiy fanlari hisoblanadi. Shu tariqa, mazkur vaziyatlar nafaqat fanga doir va shaxsiy kompetentlikni, balki metodik kompetentlikni ham rivojlantirishga yordam beradi.

Vaziyat-illyustratsiya asosiy mavzuga va o'qituvchi tomonidan berilgan mavzuga tegishli bo'lgan biror-bir murakkab jarayon yoki vaziyatni tushuntiradi. U mulohazalarda mustaqillikni eng kam miqdorda rag'batlantiradi. Bu bayon etilayotgan nazariy materialning mohiyatini tushuntiruvchi misollardir. Vaziyat-illyustratsiya, ona tili o'qitish metodikasi fanining (ideal ob'ektlardan tashkil topgan mavhum fan) o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, talabalarning tilga oid ob'ektlar bilan ishlashlarida shaxsiy va egallangan tajribaga tayanish bilan nazariy materialning mohiyatini tushuntirish uchun uni bayon etishda doim qo'llaniladi. Masalan, "Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishini o'rgatish" (3-kurs) ma'ruzasida kelishik qo'shimchalarining mazmunini kiritishda, uning talqini va mohiyatini tushuntirishga imkon beradigan jadvallar, ustunlar va grafik organayzerlar yordamida ko'rsatiladi. Mazkur metod yordamida talabalarning avval egallagan tajribalari hisoblangan bilim va ko'nikmalari aktuallashti. Agar talabalarga mazkur vaziyatda kelishik qo'shimchalarining bir necha ilyustratsiyalarini keltirishdan so'ng (yakuniy va cheksiz), otlarda kelishik qo'shimchalarini interpretatsiyalovchi grafik ko'rinishini aniqlash taklif etilsa, unda vaziyat- ilyustratsiya vaziyat-muammoga aylanadi. Agar vaziyat-ilyustratsiya bo'yicha talabalarda savol yoki tasdiq rivojlansa, unda vaziyat- ilyustratsiya vaziyat-bahoga aylanadi.

Ko'rinib turganidek, vaziyat-ilyustratsiyalar fanga doir, metodik va shaxsiy kompetentliklarning rivojlanishiga yordam berdi. Vaziyat-mashq avval qabul qilingan qoidalarini qo'llashni va qo'yilgan muammolarni ravshan va bahssiz yechimlarini ko'zda tutadi. Bunday vaziyatlar tadqiq etilayotgan muammoga taalluqli ma'lumotlarni qayta ishlash yoki aniqlashda ta'lim oluvchilarning ma'lum ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Ular, asosan, mashq qilish xususiyatiga ega va tajriba egallashga yordam beradi. Masalan, "Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatish" mavzusi bo'yicha ma'ruzada bir nechta otlarni kelishik fo'shimchasi bilan turlash topshirig'i berildi. Shundan so'ng talabalarga mazkur topshiriqni, bir necha misollarda bajarish taklif etildi. Mazkur

topshiriqlar mashq xususiyatiga ega bo'lib, kelishiklarga oid mashqlarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantirdi, ya'ni fanga doir ko'nikmalarni rivojlantirdi.

Imitatsion o'yinli mashqlar (rollarni ijro etish, o'yinli loyihalashtirish) – faol o'qitish metodi bo'lib, uning farqli xususiyati – faqat o'qituvchi uchun avvaldan ma'lum bo'lgan muammoning to'g'ri yoki optimal yechimining mavjudligi hisoblanadi. Imitatsion mashqlar ko'proq ma'lum mutaxassislar, ishchilar, rahbarlar faoliyati emas, balki faqatgina muhit modellashtiriladigan imitatsion o'yin mavqeiga ega bo'ladi (4-ilova). Bundaylar sifatida quyidagilar bo'lishi mumkin: insonlar xulqlarini belgilovchi xo'jalik, huquqiy, ijtimoiy-psixologik, matematik va boshqa mexanizmlar (printsplar), ma'lum imitatsion vaziyatda ularning o'zaro aloqasi.

Rol ijro etish usuli optimal yechimi rasmiylashtirilgan metodlar bilan erishilishi mumkin bo'lgan alohida, yetarlicha murakkab boshqaruv va iqtisodiy masalalarni yechishda samarali bo'lishi mumkin. Bunday masalani yechish manfaatlari o'xshash bo'lgan bir necha ishtirokchilar o'rtasidagi kelishuv natijasi hisoblanadi. Ishchi o'yinlardan ko'ra, rol ijro etish ishlab chiqish va joriy etish uchun ancha kam vaqt va harajat sarfini talab etadi va quyidagi alohida belgilarga egadir: masala muammoning mavjudligi, ularni yechadigan ishtirokchilar o'rtasida rollarni taqsimlash (masalan, ishlab chiqarish yig'ilishi imitatsiyasi); o'yinli mashg'ulot ishtirokchilarining muhokama orqali o'zaro munosabatlari (ishtirokchilardan har biri boshqa ishtirokchilar fikrini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi mumkin); o'qituvchi tomonidan mashg'ulot jarayonida tuzatuvchi shartlarning kiritilishi (o'qituvchi muhokamani to'xtatib turishi va qo'yilgan masalani yechishda inobatga olinishi kerak bo'lgan ayrim yangi ma'lumotlarni xabar qilishi mumkin, muhokamani boshqa tomonga yo'naltirilishi va h.k.); o'qituvchi tomonidan muhokama natijalarini baholash va yakun yasash.

Rollarni ijro etish usuli yordamida fakultet kengaytirilgan yig'ilishi imitatsiyasini amalga oshirdik va unda Oliy o'quv yurti 2-kurs talabalarining birinchi semestr natijalari bo'yicha Surdopedagogika fanidan bilimlarini tekshirishni tashkil qilish to'g'risidagi masala hal qilindi. Yig'ilish ishtirokchilari rolini 3-kurs talabalari o'ynadilar va ular kengash tarkibini ijro qildilar, ya'ni: kengash raisi (fakultet dekani), kafedra mudiri, ona tili o'qitish texnologiyasi fani o'qituvchilari va talabalar faollari, qolgan barcha talabalar chetki kuzatuvchilar bo'ldilar (ularning vazifasi – ishtirokchilar harakatlarini baholash, tadbir yakunida u to'g'risidagi o'z fikrlarini bildirish).

Yig'ilish muhitini modellashtirish ishtirokchilarni tadbirni o'tkazish qoidalari bilan tanishtirish, bayonnoma yuritish, ular o'rtasidagi huquqiy-me'yoriy munosabatlar imitatsiyasi yordamida amalga oshirildi. Yig'ilish ikki akademik soat davomida muzokaralar ko'rinishida o'tkazildi. Fakultet kengashi a'zolarining mazkur masala bo'yicha qiziqishlari turlicha bo'lganligi sababli, 2-kurs talabalarining bilimlarini tekshirishni tashkil qilish masalasi to'g'risidagi qaror uning ishtirokchilari o'rtasidagi kelishuv natijasi hisoblandi. Tadbir natijalari bo'yicha talabalar tomonidan muhokamalar to'g'risida quyidagi fikrlar bildirildi: “juda qiziqarli”, “oliy ta'lim muammolari to'g'risida o'ylab ko'rishga undaydi”, “hisobot shaklini tanlash – bu muammo ekanligini kutmagan edim”, “bilim va ko'nikmalarni baholashga nisbatan o'z munosabatim o'zgardi”, “reyting va imtihonlarga yanada jiddiy

tayyorgarlik ko'raman", "avval reyting baholash to'g'risida muqarrarlik sifatida o'ylardim, endi esa – zarurat deb bilaman" va boshqalar.

Talabalarning fikrlarini tahlil qilib, mazkur tadbir talabalarga umuman oliy ta'lim muassasasidagi o'quv-tarbiya jarayoniga, o'z o'quv faoliyatlariga, o'z intilishlari darajasiga, o'quv-bilish motivatsiyasiga o'z munosabatlarini o'zgartirishi to'g'risidagi xulosaga keldik. Shu tariqa, mazkur metodni qo'llash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini yanada ongli bo'lishiga imkon beradi, ya'ni uning shaxsiy kompetentligini rivojlantiradi.

O'yinli ishlab chiqarish loyihalash metodi o'quv fanlarini o'rganishni sezilarli faollashtiradi, bo'lajak surdopedagoglarning loyiha-konstruktorlik faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish oqibatida uni yanada samarali bo'lishiga imkon beradi. Keyinchalik bu murakkab metodik muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi. Mazkur metodning o'ziga xos belgilari quyidagilar hisoblanadi: o'qituvchi talabalarga yetkazadigan metodik muammo yoki masalaning mavjudligi; ishtirokchilarni kichik bellashuvchi guruhlariga ajratish va ular tomonidan qo'yilgan muammoni (masalani) yechish variantining ishlab chiqilishi; muammoli guruh yoki to'garak (agar ishning mazkur qismi kurs loyihasini ishlab chiqish bilan birlashtirilgan bo'lsa) yakuniy yig'ilishini o'tkazish.

O'yinli loyihalash metodini qo'llashga misol bo'lib 3-kurs talabalarining quyidagi metodik muammoni yechishlari uchun kichik guruhlaridagi ishlarini tashkil etish xizmat qiladi: "Fe'llarda shaxs-son qo'shimchalari. Fe'lni o'rganish jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish" mavzusi bo'yicha boshlang'ich sinfdagi o'quvchining bilimni aktallashtirish (5-ilo va).

Mashg'ulotga tayyorlanish uchun talabalar har bir kichik guruhda aniq mavzuga oid materialni tanlab oldilar, mazkur mavzu bo'yicha boshlang'ich sinfdagi o'quvchining bilimni aktallashtirish metodlari va usullarini tanladilar va asosladilar. Muammoli guruh kengashida parcha taqdimoti bilan chiqdilar (loyiha himoyasi). Taqdimotdan so'ng muhokamalar va sovrinli o'rinlarni aniqlash amalga oshirildi.

Ko'rsatilgan muammoni o'yinli loyihalash yordamida hal etish talabalarga qator o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligini anglab yetishlariga: pedagogika, psixologiya, ona tili, ona tili o'qitish metodikasi, bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning fundamental asosi sifatida mazkur fanlarni o'rganishni faollashtirishga imkon berdi. Shaxsiy-rivojlantiruvchi ta'limiy vaziyat sifatida foydalanilgan, ko'rsatilgan "topshiriq-dialog-o'yin" tayanch texnologik kompleksdan ko'rinib turganidek, uning barcha komponentlari o'zaro bog'liq. Shu bilan birga, mazkur texnologik kompleksni yaxlit tizim sifatida qarashga imkon beruvchi, asosiy bog'lovchi tarmoq dialoglar tizimi hisoblanadi.

Bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda mazkur tayanch texnologik kompleksni amalga oshirish, oliy pedagogika ta'lim muassasasining o'quv-tarbiya jarayoni o'z faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan darajasiga erishganligi, ya'ni shaxsga yo'naltirilganga aylanganligi to'g'risidagi haqiqatni aytish imkonini berdi. Bu xulosa tajriba-sinov ishida tasdiqlandi.

Yuqorida aytilganlar asosida oliy ta'lim muassasasida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim quyidagilarga imkon berishi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin:

– ta’lim mazmuni elementlarini talabalarning hayotiy mazmunli sohalari bilan bog’liq bo’lgan, talabalarning bilimlarni, bo’lajak kasbiy faoliyatga barqaror ijobiy motivatsiyani rivojlantiruvchi harakat usullari ko’nikmalarini chuqur shaxsiy o’zlashtirishlarini ta’minlovchi turli darajali shaxsga yo’naltirilgan masalalar ko’rinishida ifodalash;

– sub’ektiv-mazmunli muloqot, refleksiya, talaba shaxsining o’z-o’zini amalga oshirishini ta’minlovchi maxsus didaktik-kommunikativ muhit sifatida dialog sharoitida ta’lim mazmunini o’zlashtirish;

– talabaning shaxsiy funktsiyasini amalga oshirishini, unda shaxsiy faoliyati sub’ekti hissini rivojlantirishni ta’minlovchi ijtimoiy-rolli va vaqt-fazoviy sharoitlar imitatsiyasi, bu uning psixologik-pedagogik bilimlar va amaliy ko’nikmalarni o’zlashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Атаханов Р. Математическое мышление и методика определения уровня его развития/ Под ред. В.В. Давыдова. - Рига: Эксперимент, 2000. -208 с.
2. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – М.: Педагогика, 1972. – 208
3. Махмутов М.И. Проблемное обучение. – М.: Педагогика, 1975. – 367 с.
4. Митина Л.М. Учитель как личность. – М.: Дело, 1994. –215 с